



## O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI MAKTABGACHA VA MAKTAB TA’LIMI VAZIRINING BUYRUG‘I

### Umumiy o‘rta ta’lim tashkilotlarining 5-8-sinf o‘quvchilari o‘rtasida informatika yo‘nalishi bo‘yicha fan olimpiadasini tashkil etish va o‘tkazish tartibi to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev rahbarligida 2023-yil 20-dekabr kuni kengaytirilgan tarzda o‘tkazilgan videosektor yig‘ilishining 48-sonli bayoni 34-bandi hamda Vazirlar Mahkamasining “Iqtidorli o‘quvchilar o‘rtasida fan olimpiadalarini o‘tkazish tizimini takomillashtirish hamda xorijiy tillarni o‘qitish bo‘yicha eng yaxshi maktabni aniqlash tizimini joriy etish to‘g‘risida” 2021-yil 9-sentabrdagi 562-son qarori ijrosini ta’minlash maqsadida **buyuraman:**

#### 1. Quyidagilar:

umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 5-8-sinf o‘quvchilari o‘rtasida informatika yo‘nalishi bo‘yicha “maktab – tuman (shahar) – viloyat – respublika” bosqichlarida fan olimpiadasi (keyingi o‘rinlarda - olimpiada) belgilangan muddatlarda yuqori saviyada o‘tkazilsin;

informatika yo‘nalishi bo‘yicha o‘tkaziladigan olimpiadaning Respublika bosqichi natijalari asosida eng salohiyatli 100 nafar iqtidorli o‘quvchilar saralab olinsin;

xorijiy davlatlardan malakali trenerlar va mahalliy o‘qituvchilarni jalb qilib, belgilangan reja-grafik asosida iqtidorli yoshlarni xalqaro informatika olimpiadalariga chuqur tayyorlab borish tizimi yo‘lga qo‘yilsin.

#### 2. Quyidagilar:

umumiy o‘rta ta’lim tashkilotlarining 5-8-sinf o‘quvchilari o‘rtasida informatika yo‘nalishi bo‘yicha fan olimpiadasini tashkil etish va uni o‘tkazish tartibi to‘g‘risida nizom 1-ilovaga muvofiq;

umumiy o‘rta ta’lim tashkilotlarining 5-8-sinf o‘quvchilari o‘rtasida informatika yo‘nalishi bo‘yicha fan olimpiadasini o‘tkazish reja-grafigi 2-ilovaga muvofiq;

umumiy o'rta ta'lim tashkilotlarining 5-8-sinf o'quvchilari o'rtasida informatika yo'nalishi bo'yicha fan olimpiadasini tashkil etish va uni o'tkazish bo'yicha sarf-xarajatlar smetasi 3-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Fan olimpiadalarini o'tkazish va iqtidorli o'quvchilarni saralash boshqarmasi (U.Raxmonov)ga:

xalqaro fan olimpiadalari talablari asosida yuqori malakali mutaxassislarni jalb qilib, olimpiadaning tuman, viloyat va Respublika bosqichlari uchun nazorat materiallarini ishlab chiqish va maxfiyligini ta'minlagan holda olimpiadani adolatli va shaffof o'tkazilishini ta'minlash;

olimpiada me'yoriy hujjatlar talablari asosida to'g'ri tashkil etilishi va o'tkazilishini nazoratga olish;

olimpiada bo'yicha mas'ul xodimlarni kerakli materiallar bilan belgilangan muddatlarda hududlarga yetib borishini ta'minlash vazifalari yuklatilsin.

4. Qoraqalpog'iston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri, Toshkent shahar va viloyatlar maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmalari boshliqlariga:

olimpiadani tashkil etish va o'tkazish bo'yicha hududiy tashkiliy qo'mitasi tarkibini tasdiqlash;

uch kun muddatda olimpiadani tashkil etishga oid tegishli chora-tadbirlar dasturi va sarf-xarajatlar smetasini ishlab chiqish;

hakamlar hay'ati va apellyatsiya komissiyasi, auditoriya rahbarlari, nazoratchilar tarkibini shakllantirish;

hakamlar hay'ati tarkibiga hududdagi oliy ta'lim muassasalari, Ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalari agentligi tasarrufidagi ta'lim muassasalari, akademik litseylar, davlat va nodavlat (xususiy) umumta'lim maktablaridan tajribali o'qituvchilarni jalb etish;

joriy yilning 20-mart kuniga qadar olimpiadani o'tkazish uchun yetarli moddiy-texnik bazaga ega, barcha tuman (shahar)lardan kelib-ketish uchun qulay bo'lgan joyni belgilash va bu bo'yicha vazirlikka ma'lumot taqdim etish;

olimpiadani ochiq, adolatli va shaffof o'tkazilishini ta'minlash maqsadida, auditoriyalar va olimpiada o'tkaziladigan joylarda kuzatuv kameralarini o'rnatish, har bir auditoriyaga xolis nazoratchi va kuzatuvchilarni jalb etish;

olimpiada ishtirokchilarini olimpiada o'tkaziladigan joyga kelib-ketishlarida harakat xavfsizligini ta'minlash choralarini ko'rish;

olis hududlardan keladigan o'quvchi va o'qituvchilarni hududiy malaka oshirish markazlarining yotoqxonasi joylashtirishni tashkil etish;

olimpiadani tashkil etish va o'tkazishga oid tegishli hujjatlar (qaydnoma, qaror, hisobotlar)ning hakamlar hay'ati a'zolari tomonidan to'g'ri, sifatli rasmiylashtirilishini ta'minlash va natijalari bo'yicha tahliliy ma'lumotnomani Fan olimpiadalarini o'tkazish va iqtidorli o'quvchilarni saralash boshqarmasiga taqdim etish vazifalari yuklatilsin.

5. Mazkur buyruqning 3-ilovasida ko'rsatilgan sarf-xarajatlar vazirlikning 2024-yil uchun markazlashgan tadbirlarning xarajatlar smetasi mablag'lari doirasida amalga oshirilishi belgilansin.

6. Buxgalteriya hisobi va hisoboti boshqarmasi (F.Jamuratova) mazkur buyruqning 3-ilovasiga muvofiq, tuzilgan shartnomalarga asosan to'lovlarni o'rnatilgan tartibda amalga oshirilishini ta'minlasin.

7. Axborot xizmati (D.Sobirova) olimpiada jarayonlarini ommaviy axborot vositalari va vazirlikning rasmiy veb-saytida keng yoritish choralari ko'rsin.

8. Devonxona (H.Raximbayeva) bir kun muddatda mazkur buyruqni markaziy apparatning tegishli bo'limlari hamda hududiy maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmalarga yetkazilishini ta'minlasin.

9. Mazkur buyruqning ijrosini nazorat qilish vazirning birinchi o'rinbosari U.Sharifxodjayev zimmasiga yuklansin.

**Vazir**



**X. Umarova**

Toshkent sh.,  
2024-yil "07" - mart  
70 - son

O‘zbekiston Respublikasi  
Maktabgacha va maktab  
ta’limi vazirining  
2024-yil “07” - martdagi  
70 - sonli buyrug‘iga

## **1-ILOVA**

# **Umumiy o‘rta ta’lim tashkilotlarining 5-8-sinf o‘quvchilari o‘rtasida informatika yo‘nalishi bo‘yicha fan olimpiadasini tashkil etish va uni o‘tkazish tartibi to‘g‘risida NIZOM**

## **I bob. UMUMIY QOIDALAR**

1. Mazkur Nizom umumiy o‘rta ta’lim tashkilotlarining 5-8-sinf o‘quvchilari o‘rtasida 2024-yilda o‘tkaziladigan informatika yo‘nalishi bo‘yicha fan olimpiadasini (keyingi o‘rinlarda - olimpiada) tashkil etish va o‘tkazish jarayonida qo‘llaniladi.

2. Olimpiadada 5-, 6-, 7- va 8-sinf o‘quvchilari uchun nazorat materiallari alohida taqdim qilinadi hamda g‘oliblar sinflar kesimida alohida aniqlanadi.

3. Olimpiada nazorat materiallari o‘quvchilarning mantiqiy, tanqidiy, kreativ fikrlash qobiliyatlarini aniqlashga qaratilgan bo‘lib, asosan matematika fanidan topshiriqlar va nostandart masalalar taqdim qilinadi.

4. Olimpiada “maktab – tuman (shahar) – viloyat – respublika” bosqichlarida tashkil qilinadi.

5. Ixtisoslashtirilgan ta’lim muassasalari agentligi tasarrufidagi maktablarning 5-8-sinf o‘quvchilari olimpiadaning viloyat bosqichida qatnashishlari mumkin.

6. Olimpiada to‘rt bosqichda quyidagi muddatlarda o‘tkaziladi:

birinchi bosqich — davlat va nodavlat ta’lim muassasalari o‘quvchilari o‘rtasida maktab bosqichi mart oyida;

ikkinchi bosqich — tuman (shahar) miqyosida birinchi bosqichda g‘olib bo‘lgan o‘quvchilar o‘rtasida mart oyida;

uchinchi bosqich — Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri miqyosida ikkinchi bosqich g‘oliblari hamda Ixtisoslashtirilgan ta’lim muassasalari agentligi tasarrufidagi maktablar o‘quvchilari o‘rtasida aprel oyida;

to‘rtinchi bosqich — respublika miqyosida uchinchi bosqichda g‘olib bo‘lgan o‘quvchilar o‘rtasida aprel oyida o‘tkaziladi.

## **II bob. OLIMPIADANING MAQSAD VA VAZIFALARI**

7. Kichik yoshli iqtidorli yoshlarni qo‘llab-quvvatlash, ularning intellektual salohiyatini namoyon etishiga ko‘maklashish, o‘quvchilarni nufuzli xalqaro fan olimpiadalariga puxta tayyorgarlik ko‘rishlariga shart-sharoitlar yaratish;

ta’lim muassasalari o‘quvchilari orasidan informatika, matematika fanlari bo‘yicha bilimli, ushbu fanga qiziquvchi, intiluvchan va ijodkor yoshlarni aniqlash hamda ulardagi ijodiy qobiliyatlarni ro‘yobga chiqarishga ko‘maklashish,

qo‘llab-quvvatlash va rag‘batlantirish;

mazkur olimpiadaning Respublika bosqichida muvaffaqiyatli ishtirok etgan o‘quvchilarni kelgusida xalqaro miqyosida tashkil qilinadigan informatika, matematika fanlaridan turli musobaqa va olimpiadalarda ishtirok etuvchi respublika terma jamoasiga nomzod sifatida kiritish, shuningdek, nufuzli xalqaro olimpiadalarda O‘zbekiston jamoasining natijadorligini oshirish maqsadida yosh iqtidorlarni zaxirada tayyorlab borish.

### **III bob. OLIMPIADANI TASHKIL ETISH TARTIBI**

8. Olimpiadaning har bir bosqichini tashkil etish va o‘tkazish bo‘yicha Maktabgacha va maktab ta‘limi vazirligi, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta‘limi vazirligi, Toshkent shahar va viloyatlar maktabgacha va maktab ta‘limi boshqarmalari, tuman (shahar) maktabgacha va maktab ta‘limi bo‘limlari hamda davlat va nodavlat ta‘lim muassasalarida tashkiliy qo‘mita tuziladi.

9. Quyidagilar tashkiliy qo‘mitaning vazifalari hisoblanadi:

olimpiada o‘tkaziladigan joyni belgilash va tasdiqlash;

hakamlar hay‘ati tarkibi, apellyatsiya komissiyasi a‘zolari, auditoriya rahbarlari ro‘yxatini shakllantirish;

olimpiada nazorat materiallarining maxfiylikini, olimpiadani mazkur Nizom talablari asosida o‘tkazilishini ta‘minlash;

olimpiadani tashkil etish, o‘tkazish va natijalarini ommaviy axborot vositalarida yoritib borish;

olimpiada natijalari va hakamlar hay‘ati qarori asosida g‘oliblarni keyingi bosqichda ishtirok etishi bo‘yicha tavsiyani yuqori turuvchi tashkiliy qo‘mitaga taqdim etish;

o‘quvchilar topshiriqlarni yakunlaganidan so‘ng, savollar kitobchasi ishtirokchilarning o‘zida qoldirilishini hamda barcha ishtirokchilarning testga yozgan javoblar varag‘ini rasmga olib maxsus Telegram guruhiga joylashtirilishini nazorat qilish;

olimpiada jarayonlarini (topshiriqlarni qog‘ozga chiqarish vaqtida, ishtirokchilar test topshirayotgan vaqtida, hakamlar hay‘ati ishlarni tekshirayotgan vaqtda) ijtimoiy tarmoqlarda (Facebook, Instagram, YouTube) jonli tarzda namoyish qilish.

### **IV bob. HAKAMLAR HAY‘ATI**

10. Olimpiadaning barcha bosqichlarida tashkiliy qo‘mita tomonidan 3 kishidan 7 kishigacha tarkibda hakamlar hay‘ati tuziladi.

11. Hakamlar hay‘ati:

olimpiada jarayonida beriladigan nazorat materiallarini ekspertizadan o‘tkazadi;

olimpiada ishtirokchilari tomonidan bajarilgan ishlarni baholash mezonlari

asosida xolisona tekshiradi, baholaydi va gʻoliblarni aniqlaydi;

natijalarni olimpiada oʻtkazilgan kuni eʻlon qiladi;

oʻtkazilgan olimpiada natijalari boʻyicha qaror qabul qiladi va uni tashkiliy qoʻmitaga taqdim etadi.

12. Hakamlar hayʻati tarkibiga davlat va nodavlat taʻlim tashkilotlari, oliy taʻlim va ilmiy-tadqiqot institutlarining yuqori malakali mutaxassisleri jalb qilinadi. Tuzilgan hakamlar hayʻati aʻzolari ochiq ovoz berish yoʻli bilan hayʻat raisini saylaydilar.

13. Hakamlar hayʻati aʻzolari olimpiada gʻoliblarini xolisona aniqlashda va nazorat materiallarining maxfiyligini taʻminlashda shaxsan javobgar hisoblanadi.

14. Ishtirokchilarning topshiriqlarga bergan javoblar varagʻida bitta savolga ikki va undan ortiq javoblar toʻgʻri deb belgilangan boʻlsa, ularning birontasi ham inobatga olinmaydi va ushbu savolning javobi uchun 0 ball qoʻyiladi.

15. Hakamlar hayʻati tomonidan oʻquvchilarning bajargan ishlari tekshirilayotgan paytda, tashkiliy qoʻmita tomonidan topshiriqlarning toʻgʻri javoblari va yechimlari eʻlon qilinadi.

16. Test topshiriqlari orasida xato tuzilgan yoki toʻgʻri javobi mavjud boʻlmagan savollar aniqlansa, barcha ishtirokchilarga mazkur savol uchun belgilangan ball beriladi.

17. Hakamlar hayʻati barcha oʻquvchilarning ishlarini tekshirib boʻlgandan soʻng, auditoriyaga yigʻilgan ishtirokchilarga oʻz ishlari baholangan holatda tanishishlari uchun taqdim etiladi. Ishtirokchilarning auditoriyadagi xatti-harakatlari (oʻz ishlarini oʻzgartirib qoʻyishi, javoblar varagʻini qaytarib topshirmasligi oldi olinishi kerak) qatʻiy nazoratga olinadi.

18. Ishtirokchilar oʻz ishlarini hakamlar hayʻati tomonidan toʻgʻri va adolatli tekshirilganligiga ishonch hosil qilsalar, uni qaytarib hakamlar hayʻatiga topshiradi.

19. Barcha ishtirokchilarning ishlari qayta yigʻib olingandan soʻng, ballar oʻzgargan holatlar mavjud boʻlsa, shu asosida yakuniy qaror shakllantiriladi hamda yakuniy qaror va gʻolib boʻlgan 3 nafar ishtirokchining javoblar varagʻidan nusxa olinib, barchaga eʻlon qilinadi.

## **V bob. AUDITORIYA RAHBARI VA NAZORATCHILAR**

20. Tashkiliy qoʻmita tomonidan xonalarga auditoriya rahbari va nazoratchilari tayinlanadi.

Matematika, informatika fan oʻqituvchisi olimpiada oʻtkazilayotgan auditoriyaga rahbar yoki nazoratchi etib tayinlanishiga yoʻl qoʻyilmaydi.

21. Auditoriya rahbarlari:

ishtirokchilarga olimpiadaning tartib-qoidalari toʻgʻrisida qisqacha tushuntiradi;

olimpiada boshlanishi va tugash vaqtini eʻlon qiladi hamda olimpiada jarayonini nazorat qiladi;

olimpiada jarayonida oʻrnatilgan tartib-qoidalarga amal qilmagan oʻquvchilarni olimpiadadan dalolatnoma tuzib chetlashtiradi;

ishtirokchilarning bajargan ishlarini shifrlab, tekshirish uchun hakamlar hay'atiga topshiradi;

hakamlar hay'ati tomonidan tekshirilgan ishlarni shifr bo'yicha ro'yxatini tuzadi va tashkiliy qo'mitaga taqdim etadi.

22. Auditoriya nazoratchilari olimpiada o'tkazilayotgan va o'zlari biriktirilgan auditoriyada tartib saqlanishini ta'minlaydilar va auditoriya rahbariga qo'yilgan vazifalarni amalga oshirishda ko'maklashadilar.

23. Olimpiada o'tkaziladigan auditoriyalar videokuzatuv kameralari bilan jihozlanadi. Auditoriyada telefon va turli aloqa vositalaridan foydalanish taqiqlanadi.

Ommaviy axborot vositalari vakillariga olimpiada jarayoniga xalaqit qilmagan holda kuzatishlariga ruxsat beriladi.

24. Olimpiada o'tkazilayotgan jarayonda ishtirokchilarning o'zaro gaplashishi, aloqa vositalari va turli xil qo'shimcha manbalardan foydalanishi taqiqlanadi.

Bunday holatlar uchun ishtirokchi olimpiadadan chetlashtiriladi, bajargan ishlari tekshirilmaydi va baholanmaydi.

## **VI bob. APELLYATSIYA KOMISSIYASI**

25. Apellyatsiya komissiyasi hakamlar hay'ati tarkibiga kirmagan uch nafargacha fan mutaxassislaridan iborat tarkibda tuziladi.

26. Apellyatsiya komissiyasi tomonidan olimpiada ishtirokchilarining arizalari olimpiada natijalari e'lon qilingan kunning o'zida qabul qilinadi. Apellyatsiya jarayonida hakamlar hay'ati a'zolari, ishtirokchi va uning fan o'qituvchisi ishtirok etishi mumkin.

27. Apellyatsiyaga olimpiadalar ishtirokchilarining faqatgina o'zlari tomonidan bajarilgan ishlarini qayta ko'rib chiqish bo'yicha natija e'lon qilingandan so'ng shu kunning o'zida arizalar qabul qilinadi.

28. Hakamlar hay'ati tomonidan baholangan ishtirokchining bajargan ishida baholash mezonlariga mos kelmaslik holatlari aniqlanganda apellyatsiya komissiyasi hakamlar hay'ati qarorini bekor qilish yoki ularga o'zgartirishlar kiritish huquqiga ega.

29. Apellyatsiya komissiyasi hakamlar hay'atiga apellyatsiya natijalari bo'yicha izoh berib, olimpiada natijalarini o'zgartirishi mumkin va bunda hakamlar hay'ati qarori qayta tasdiqlanadi.

## **VII bob. OLIMPIADANING MAKTAB BOSQICHINI TASHKIL ETISH VA O'TKAZISH**

30. Olimpiadaning maktab bosqichi davlat va nodavlat ta'lim muassasalarida mart oyida o'tkaziladi.

31. Davlat va nodavlat ta'lim muassasalarida olimpiadani tashkil etish va o'tkazish bo'yicha tashkiliy qo'mita tuziladi.

32. Olimpiada uchun nazorat materiallarini tayyorlash, maxfiyligini

ta'minlash, jarayonning adolatli va shaffof o'tkazilishiga maktab direktori shaxsan mas'ul hisoblanadi.

33. Maktablarda har bir sinf kesimida ishtirokchilar orasidan ballar ketma-ketligida 3 nafargacha g'olib aniqlanadi va maktab pedagogik kengashining (yoki nodavlat ta'lim tashkiloti rahbarining) qarori bilan ikkinchi bosqichda ishtirok etish uchun tavsiya etiladi.

34. Tuman (shahar) maktabgacha va maktab ta'limi bo'limi olimpiadaning maktab bosqichini tashkil etilishini muvofiqlashtiradi hamda adolatli va shaffof o'tkazilishi bo'yicha nazoratni amalga oshiradi.

## **VIII bob. OLIMPIADANING TUMAN (SHAHAR) BOSQICHINI TASHKIL ETISH VA O'TKAZISH**

35. Olimpiadaning tuman (shahar) bosqichi olimpiadaning maktab bosqichida g'olib bo'lgan davlat va nodavlat ta'lim muassasalari o'quvchilari o'rtasida mart oyida o'tkaziladi.

36. Tuman (shahar) maktabgacha va maktab ta'limi bo'limlarida olimpiadani tashkil etish va o'tkazish bo'yicha tashkiliy qo'mita tuziladi.

37. Olimpiada ishtirokchilarining olimpiada bo'lib o'tadigan manzilga xavfsiz kelib-ketishlariga tegishli maktab direktorlari;

olimpiada nazorat materiallarining maxfiyligini ta'minlash, jarayonning adolatli va shaffof o'tkazilishiga hududiy maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmalari boshliqlari shaxsan mas'ul hisoblanadi.

38. Olimpiada uchun nazorat materiallari Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi tomonidan tuziladi hamda maxfiyligi ta'minlangan holda hududlarga yetkaziladi.

39. Olimpiadaning tuman (shahar) bosqichi bitta turda tashkil qilinadi. Bunda: ishtirokchilarga matematika fanidan turli qiyinlik darajasidagi 30 ta nostandart topshiriqlar taqdim qilinib, ularni bajarish uchun 90 daqiqa vaqt beriladi.

40. Topshiriqlarining dastlabki 10 tasi sodda darajadagi yopiq test (A, B, C, D javob variantlaridan tanlanadi) bo'lib, har bir to'g'ri javob 0,9 ball bilan baholanadi;

keyingi 10 tasi o'rta qiyinlik darajadagi yopiq test (A, B, C, D javob variantlaridan tanlanadi) bo'lib, har bir to'g'ri javob 1,5 ball bilan baholanadi;

qolgan 10 tasi qiyin darajadagi ochiq test (javobi yoziladigan) bo'lib, har bir to'g'ri javob 2,6 ball bilan baholanadi, jami 50 ball ( $10 \cdot 0,9 + 10 \cdot 1,5 + 10 \cdot 2,6 = 50$ ).

41. Tuman (shahar) bosqichida har bir sinf kesimida ishtirokchilar orasidan ballar ketma-ketligida 3 nafargacha (1, 2, 3-o'rinlar) g'olib aniqlanadi va hakamlar hay'ati qarori asosida tashkiliy qo'mita tomonidan uchinchi bosqichda ishtirok etish uchun tavsiya etiladi.

42. Yakuniy natijalarga ko'ra, g'olib o'rinlar uchun bir nechta ishtirokchilarning ballari teng bo'lgan taqdirda, topshiriqlaridagi murakkab topshiriqlar bo'yicha ko'p ball to'plagan o'quvchi ustunlikka ega bo'ladi.

43. Barcha holat bo'yicha ham ballar teng bo'lgan taqdirda o'quvchilarga hakamlar hay'ati tomonidan qo'shimcha 3 ta ochiq test (javobi yoziladigan) beriladi va g'olib aniqlanadi.



## **IX bob. OLIMPIADANING VILOYAT BOSQICHINI TASHKIL ETISH VA O‘TKAZISH**

44. Hududiy maktabgacha va maktab ta’limi boshqarmalarida olimpiadani tashkil etish va o‘tkazish bo‘yicha tashkiliy qo‘mita tuziladi.

45. Olimpiadaning viloyat bosqichida:

olimpiadaning tuman (shahar) bosqichida 1-, 2- va 3-o‘rinlarni egallagan o‘quvchilar;

ixtisoslashtirilgan ta’lim muassasalari agentligi tomonidan har bir sinf va hudud kesimida tavsiya etilgan 15 nafargacha o‘quvchilar ishtirok etadi.

46. Olimpiadaning mazkur bosqichi aprel oyida o‘tkaziladi.

47. Olimpiada ishtirokchilarining olimpiada bo‘lib o‘tadigan manzilga xavfsiz kelib-ketishlariga tegishli maktab direktorlari;

olimpiada nazorat materiallarining maxfiyligini ta’minlash, jarayonning adolatli va shaffof o‘tkazilishiga hududiy maktabgacha va maktab ta’limi boshqarmalari boshliqlari shaxsan mas’ul hisoblanadi.

48. Olimpiada uchun nazorat materiallari Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi tomonidan tuziladi hamda maxfiyligi ta’minlangan holda hududlarga yetkaziladi.

49. Olimpiadaning viloyat bosqichi bitta turda tashkil qilinadi. Bunda:

ishtirokchilarga matematika fanidan turli qiyinlik darajasidagi 36 ta nostandart topshiriqlar taqdim qilinib, ularni bajarish uchun 120 daqiqa vaqt beriladi.

50. Topshiriqlarining dastlabki 12 tasi sodda darajadagi yopiq test (A, B, C, D javob variantlaridan tanlanadi) bo‘lib, har bir to‘g‘ri javob 0,9 ball bilan baholanadi;

keyingi 12 tasi o‘rta qiyinlik darajadagi yopiq test (A, B, C, D javob variantlaridan tanlanadi) bo‘lib, har bir to‘g‘ri javob 1,5 ball bilan baholanadi;

qolgan 12 tasi qiyin darajadagi ochiq test (javobi yoziladigan) bo‘lib, har bir to‘g‘ri javob 2,6 ball bilan baholanadi, jami 60 ball ( $12 \cdot 0,9 + 12 \cdot 1,5 + 12 \cdot 2,6 = 60$ ).

51. Viloyat bosqichida har bir sinf kesimida ishtirokchilar orasidan ballar ketma-ketligida 3 nafargacha (1, 2, 3-o‘rinlar) g‘olib aniqlanadi va hakamlar hay’ati qarori asosida tashkiliy qo‘mita tomonidan uchinchi bosqichda ishtirok etish uchun tavsiya etiladi.

52. Yakuniy natijalarga ko‘ra, g‘olib o‘rinlar uchun bir nechta ishtirokchilarning ballari teng bo‘lgan taqdirda, topshiriqlaridagi murakkab topshiriqlar bo‘yicha ko‘p ball to‘plagan o‘quvchi ustunlikka ega bo‘ladi.

53. Barcha holat bo‘yicha ham ballar teng bo‘lgan taqdirda o‘quvchilarga hakamlar hay’ati tomonidan qo‘shimcha 3 ta ochiq test (javobi yoziladigan) beriladi va g‘olib aniqlanadi.

## **X bob. OLIMPIADANING RESPUBLIKA BOSQICHINI TASHKIL ETISH VA O‘TKAZISH**

54. Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligida olimpiadani tashkil etish va o‘tkazish bo‘yicha tashkiliy qo‘mita tuziladi.

55. Olimpiadaning respublika bosqichida olimpiadaning viloyat bosqichida

sinflar kesimida 1-5-o‘rinlarni egallagan o‘quvchilari ishtirok etadi.

56. Olimpiadaning mazkur bosqichi aprel oyida o‘tkaziladi.

57. Olimpiada ishtirokchilarining olimpiada bo‘lib o‘tadigan manzilga xavfsiz kelib-ketishlariga tegishli maktab direktorlari;

olimpiada nazorat materiallarining maxfiylikni ta‘minlash, jarayonning adolatli va shaffof o‘tkazilishiga hududiy maktabgacha va maktab ta‘limi boshqarmalari boshliqlari shaxsan mas’ul hisoblanadi.

58. Olimpiada uchun nazorat materiallari Maktabgacha va maktab ta‘limi vazirligi tomonidan tuziladi hamda maxfiylikni ta‘minlangan holda hududlarga yetkaziladi.

59. Olimpiadaning respublika bosqichi bitta turda tashkil qilinadi. Bunda: ishtirokchilarga matematika fanidan turli qiyinlik darajasidagi 36 ta nostandart topshiriqlar taqdim qilinib, ularni bajarish uchun 120 daqiqa vaqt beriladi.

60. Topshiriqlarining dastlabki 12 tasi sodda darajadagi yopiq test (A, B, C, D javob variantlaridan tanlanadi) bo‘lib, har bir to‘g‘ri javob 0,9 ball bilan baholanadi;

keyingi 12 tasi o‘rta qiyinlik darajadagi yopiq test (A, B, C, D javob variantlaridan tanlanadi) bo‘lib, har bir to‘g‘ri javob 1,5 ball bilan baholanadi;

qolgan 12 tasi qiyin darajadagi ochiq test (javobi yoziladigan) bo‘lib, har bir to‘g‘ri javob 2,6 ball bilan baholanadi, jami 60 ball ( $12 \cdot 0,9 + 12 \cdot 1,5 + 12 \cdot 2,6 = 60$ ).

61. Respublika bosqichida tashkiliy qo‘mita tomonidan ishtirokchilarning to‘plagan ballari sinflar kesimida (hududlarga ajratilmagan holda) tahlil qilinadi. Xalqaro olimpiadalar metodologiyasi asosida ballar ketma-ketligida har bir sinf kesimida g‘oliblar aniqlanadi.

## **XI bob. YAKUNIY QOIDALAR**

62. Olimpiadani tashkil etish va yuqori saviyada o‘tkazish uchun Maktabgacha va maktab ta‘limi vazirligi Fan olimpiadalarini o‘tkazish va iqtidorli o‘quvchilarni saralash boshqarmasi mas’ul hisoblanadi.

63. Olimpiadani o‘tkazishda yo‘l qo‘yilgan kamchilik va xatoliklar to‘g‘risidagi shikoyatlar, olimpiada tizimini takomillashtirish yuzasidan taklif va mulohazalar boshqarma tomonidan ko‘rib chiqiladi.

64. Ushbu Nizom talablari buzilishida aybdor bo‘lgan shaxslar qonun hujjatlarida belgilangan tartibda javobgarlikka tortiladi.

O'zbekiston Respublikasi  
Maktabgacha va maktab  
ta'limi vazirining  
2024-yil "07" - martdagi  
70 - son buyrug'iga

**2-ILOVA**

**Umumiy o'rta ta'lim tashkilotlarining 5-8-sinf o'quvchilari o'rtasida  
informatika yo'nalishi bo'yicha fan olimpiadasini o'tkazish  
REJA-GRAFIGI**

<b>T/r</b>	<b>O'tkazish sanasi</b>	<b>Olimpiada bosqichi</b>	<b>Olimpiada o'tkaziladigan joy va olimpiadaning boshlanish vaqti</b>
<b>1.</b>	2024-yil 17-martga qadar	Maktab	Barcha umumiy o'rta ta'lim maktablari, nodavlat ta'lim muassasalarida
<b>2.</b>	2024-yil 23-mart	Tuman/shahar	Barcha tuman/shaharlarda, soat 11:00
<b>3.</b>	2024-yil 17-aprel	Hududiy (viloyat)	Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahrida, soat 10:00
<b>4.</b>	2024-yil 18-aprel	Respublika	Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahrida, soat 10:00